

**Nuraliyeva Sora Bahodir qizi**

2nd Stage Student of the direction of Family Psychology of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

**Nuraliyeva Sora Bahodir qizi**

O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali Oila psixologiyasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Нуралиева Сара Бахадировна**

Студент 2-го курса по направлению семейная психология Джизакского филиала Национального университета Узбекистана

## IQTIDORLI BOLALAR VA ULARNI TANLASH MASALALARI

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada iqtidor o'zi nima ekamligi, inson zehni, zakovati, layoqati, qobiliyati, iste'dodining psixologik tabiati, iqtidorli bolalar va ularni aniqlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash to'g'risida so'z boradi.

**KALIT SO'ZLAR:** inson zehni, zakovat, layoqat, iqtidorli bolalar, jamiyat ongi, rag'bat, aqliy faoliyat.

## ОДАРЕННЫЕ ДЕТИ И ВОПРОСЫ ИХ ОТБОРА

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье говорится о том, что такое талант, разум человека, интеллект, способности, способности, психологическая природа таланта, одаренные дети и их выявление, работа с одаренными детьми.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Талант, талант, способности, человеческий разум, интеллект, талант, одаренные дети, общественное сознание, мотивация, умственная деятельность.

## GIFTED CHILDREN AND ISSUES OF THEIR CHOICE

**ABSTRACT:** This article talks about what talent is, human mind, intelligence, ability, ability, psychological nature of talent, gifted children and their identification, work with gifted children.

**KEY WORDS:** Talent, talent, ability, human mind, intelligence, talent, gifted children, community consciousness, motivation, mental activity.

## 1. KIRISH

Iqtidor (arabcha-qodir bo'lmoq, qila olmoq) – shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha. Iqtidor shaxs faoliyatida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Chunonchi, ilmiy, badiiy, texnik ijodkorlikda, sport va kasb mahoratida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, iqtidor inson amaliy faoliyatidagi barcha sohalarda o'ziga xos tarzda aks etadi. Iqtidor har bir soha mutaxassisida o'ziga xos tarzda rivojlangan yoki rivojlanmagan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun inson faoliyati davomida bilim va tajribasini muttasil oshirib borishi lozim. Iqtidor axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashgani sari mukammallashib boraveradi. Bunday iqtidor sohibi jamiyat uchun, ayniqsa, zarur bo'ladi. Chunki iqtidorli kishi o'ziga bino qo'yib, kalondimog' va o'zboshimcha bo'lsa oxir-oqibatda iqtidorini ham uvol qiladi. Iqtidor ko'proq aql bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Qobiliyat esa ayrim kishilar toifasi faoliyatida aks etadi. Iqtidor va qobiliyat bir-biridan farq qiluvchi jihatlarga ega bo'lsada, lekin ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Shu ma'noda, iqtidor va qobiliyatning uyg'un bo'lishi ma'naviy barkamollikning asosiy shartlaridan biridir. Iqtidor va qobiliyatni shakllantirishda biofiziologik omillar (jismoniy sog'lomlik, miya faoliyatidagi bir maromdagi o'zgarishlar, hatto ekologik muhit va boshqa) tabiiy jarayonlar, ijtimoiy muhit (ziyolilar, hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlar, mutaxassislar, oila va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar), intuitiv faoliyat va

ma'naviy-ruhiy poklik o'ziga xos o'rin tutadi.

Iqtidor, birinchi navbatda, gneseologik vazifani bajaradi. Ya'ni, inson iqtidor orqali o'zi yashayotgan dunyoni bilishga, voqelikni yaxlit holda idrok qilishga, uni ijobiy o'zgartirishga intiladi. Bugungi kunda yurtimizda yozuvchilar, shoirlar, ilm-fan, madaniyat va san'at ahli, barcha ijodkorlarga, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida iqtidorli yigit-qizlarni topish, tarbiyalash va kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2. ASOSIY QISM

Inson zehn-zakovatining mahsuli taraqqiyotdir. Bugunga kelib insoniyat o'z tafakkurining naqadar boy ekanligiga, yaratuvchanlik quvvatiga imon keltirib, tafakkur xislatlarini takomillashtirishning ko'pgina yangi texnologik usullarini ixtiro qilmoqda. Ming-minglab yoshlarga ijod qilish, tafakkurni zamon talabiga moslashtirish usullari o'rgatilmoqda. Biz ham bunga ijodiy yondashishimiz, o'zbek millatini jahon hamjamiyatida teng va hur fikrli qilish yo'lida ish boshlashimiz kerak. Chunki bunga ehtiyoj bor, talab bor. Buyuk o'tmishga ega bo'lgan xalq buyuk kelajakka intilishi va shunga erishishi muqarrar.

Lekin bu maqsadga, hozirgi davrning ilg'or, intellektual mehnatni oliy darajada qadrlaydigan, ilm sohiblarini ko'z qorachig'iday asrab, ularga eng yuqori maoshlar belgilab, butun jahondan ixtirochi, ijodkor, olimu-fuzalolarni yiqqan mamlakatlar tarixini, ularning erishgan yutuqlarini

har tomonlama, ilmiy jihatdan o'rganish orqali erishish mumkin. Chunki rivojlangan mamlakatlar ko'pchiligi endigi kunda yoshlar tafakkurini mukammallashtirish, ijodiy xislatlarini rivojlantirish, mustaqillik, ijodkorlik, umumlashtira olish, tahlil qila olish, xislatlarini keng ommaga singdirish yo'llari bilan jamiyatni takomillashtirishga erishish mumkinligini anglab etdilar va shu yo'nalishdan ijtimoiy ongini, ta'lim tarbiya jarayonini moslashtirib ulgurdilar.

Endi biz, qanday qilib aqliy va ijodiy mukammallikka erishish mumkin? Qanday qilib yangi avlodda o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizdek olimu-fuzalolarni etishtira olamiz? O'tmishni qaytara olmasligimizni bila turib aytish mumkinki, millatning istiqloq tufayli milliy uyg'onish yangi zamon talab va ehtiyojlariga muvofiq ravishda shakllanadi, Er yuzidagi umumbashariy madaniyat taraqqiyoti doirasida rivojlanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, ta'limning zamonaviy mning texnologiyalari zamon talabiga javob beradigan, insonning intellektual quvvatini ko'tara oladigan ommaviy usuldir. Shubhasiz, bu texnologiyalar har qancha qimmatga tushmasin, barcha yoshlarni ma'rifat nuri bilan munavvar qilishda, ilg'or tafakkur usullaridan boxabar etishda ularning juda katta o'rni bor.

Ta'limning bu yangi usullari millionlab yoshlarni zamonaviylashtirishga, ular zamon ruhi va talablariga moslashishlariga, ma'naviy va g'oyaviy mukammallashtirishlariga, shubhasiz, yordamlashadi.

Shu bilan birga jahonning ilg'or mamlakatlari saviyasiga erishish uchun, millat o'z intellektual potentsialini ko'tarish yo'lida yana nima ishlar qilmog'i kerakligini chuqur anglagandagina taraqqiyotga asos yaratgan bo'ladi, chunki xalqongli ravishda kelajakka intilmas ekan, ya'ni intilish, yangilikni o'rganish, o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish g'oyalari ommaviy tus olmas (juda ko'pchilikning ongini qamrab olmas) ekan, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlay olish g'oyalari "quruq shior" bo'lib qolaveradi. Ya'ni ijodiy va mustaqil tafakkurga erishishning birdan. bir omili bu ijtimoiy ong va u yaratgan ijtimoiy talab va ehtiyojlardir.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy, madaniy, ma'naviy o'zgarishlar, dastlab, aksariyat yoshlarni intellektual faoliyatdan uzoqlashtirdi, aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar bo'shab qoldi: ilmiy-tekshirish institutlari, oliy o'quv yurtlaridan ilmiy kadrlar, maktablardan ko'pgina o'qituvchilar ketib qoldilar, lekin bu hofning vaqtinchalik ekanligini oliy o'quv yurtlariga kirish uchun berilayotgan arizalar sonining yildan-yilga ko'payib borayotganligidan, aspiranturalarga kirish uchun ham konkursning qayta tiklanayotganligidan bilsa bo'ladi.

Tahlikali vaziyatlarning kamayib, barqarorlikning kuchayishi natijasida, ilm o'rganish, aql-zakovat va ma'naviyatning boshqa hamma qadriyatlardan ustun turishini xalq bugun tobora yaxshiroq anglamoqda va inshoolloh, kelgusida inson aqliy zakovotiga bo'lgan ehtiyoj, talablar

yanada ortadi. Bas, shunday ekan, kundalik hayotimiz yaqin yillarda bu sohaning ham "xaridorgir" bo'lishi berib turibdi. muqarrarligidan guvohlik Prezidentimizning ko'plab nutqlaridagi ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ilm-fanni rivojlantirmay turib taraqqiyot bo'lmasligi haqidagi g'oyalari, ayniqsa, tariximizni chuqur va ijodiy o'rganish lozimligi to'g'risidagi fikrlari aynan yangicha dunyoqarashni, ma'naviy jihatdan barkamollikni talab qiladigan, ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat mustaqil o'zlashtira olish, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib o'z sohasida ijodiy, faol ishlay olish ilg'or kishining ing xislatlaridir.

Yangi avlod yangi va yangilangan qadriyatlarni o'zlashtirish bilan birga, yangi ta'lim texnologiyalari beradigan ijodiy tafakkur hamda mustaqil fikrga ega bo'lish orqali zamon talabiga javob beradigan urf- aqidalarga, bilimlarga o'rganib boradi. Aqliy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan, aqliy iste'dodi bilan boshqalardan ajralib turadigan ayrim yoshlarni maxsus tafakkur metodlariga o'rgatish ham juda muhim ahamiyatga ega. Yangi zamon ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini zukko, oliy tafakkur xislatlariga ega bo'lgan yoshlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu sababli oliy o'quv yurtlarida, yoshlar tashkilotlarida, o'rta maxsus va umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari orasida ilmiy tafakkur talab qiladigan, uning xislatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan maxsus mashg'ulotlar olib borilishi va shu sohani yaxshi o'zlashtiraolgan, intellekt treningi bilan shug'ullana oladigan mutaxassislar tayyorlash mashg'ulotlari barcha o'quv

muassasalarida ommaviy ravishda olib borilishi lozim.

Aqliy salohiyatni, zehni, hozir javob yoshlar tafakkur xislatlarini rivojlantirishning tan olingan. an'anaviy usullari xali ilmiy qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Hozirgi mashhur olimlar, aqliy salohiyat darg'alariga tenglashadigan sho shoiru- yozuvchilarimiz, barcha ma'naviyat peshvolari talabalik yillarida ijodiy tafakkur maktabini, shubhasiz, talabalarining ilmiy jamiyatlarida o'taganlar, zehnlilar musobaqalarida, bayt-barak aytishuvlarida bellashganlar, olimpiada, ko'riklarda o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etganlar.

Yuksak iste'dod sohiblari o'sha paytlardayoq o'z ijodiy mahsulotlarini, hikoya va she'rlarini talabalar to'plamlarida, davriy jurnal va gazetalarda chop ettirganlar. Demak, intellektual potenuialni boyitish aqliy zakovatni shakllantirishning ommaviy va shu bilan birga an'anaviy, hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmaydigan turlariga diqqatni ko'proq qaratish, imkon darajada ular moddiy-moliyaviy tomonlarini kuchaytirish, ma'lum yutuqqa erishayotgan yoshlarni kengroq rag'batlantirish, ularga tegishli moliyaviy va madaniy muhit yaratish juda katta ahamiyatga ega. Aqliy faoliyatni tarbiyalaydigan, uning mahsuldorligini oshiradigan, ijodiy xislatlarni rivojlantiradigan an'anaviy metodlar doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Maktablarda fanlardan ilmiy to'garaklar.

2. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida talabalarining ilmiy jamiyatlari.
3. O'quvchilar va

talabalarning har xil doirada o'tadigan olimpiadalari.

4. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari.

5. Ijodiy ishlar, ko'riklar, konkurslar, musobaqalar va hokazo.

1919-20-yillardayoq Amerika iste'dod bilan shug'ullangan. 1990-yil 15-yanvarı Mins. sov. qarori bilan O'zbekistonda maxsus maktablar va iste'dod markazi Toshkentda ochilgan. Amerikada iste'dodli bolalar uchun yiliga 56 million dollar mablag' ajratilgan. U vaqtda SSSRda 2 million dollar mablag' ajratilgan. O'zbekistonda 1995-yil 15-yanvarıda Vazirlar Maxkamasining taklifiga binoan iste'dod markazi tashkil etildi. 1997-yilda 10,5 ming o'quvchilardan psixologik testlar olindi. Bugungi kunga kelib "Iste'dod" markazi o'rnida tashxis markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Layoqat, qobiliyat, iqtidor va iste'dodning psixologik tabiati. Inson psixikasi ichida eng noyob xislatlaridan biri bu aql zakovat hisoblanadi. Xudo nima degan savolga Gegels bu oliy ruhdir deydi. Insoniyat ollohning bir uchquni.

Taraqqiyotni inson boshqaradi qolgan narsalar esa aql zakovatga asoslanadi. Qovun palagidan har xil qovun chiqadi. Qovunni etilishiga sharoit-muhit sabab bo'ladi. Erkak bolalar zehni o'rta hisobda balandroq bo'ladi. (Prof.B.R.Qodirov ma'lumotlari).

O'zbekiston tillasi,paxtasi.nefti.gazi bilan maqtansa Yaponlar ilmiy va aqliy salohiyati bilan maqtanadi. Tilla tugaydi ilm, aql-zakovat tugamaydi. Franquz A. Bine 1903 yilda maktablarga qabul qilishni

test asosida amalga oshirgan. Simon - Bine bilan birga standart savollar tuzgan YAnni 4 yoshli bola normasi (barmog'ing nechta?). 8 yoshli bola normasini yaratgan.

1911-yili Amerikaga psixologiya ko'chadi. Amerika psixologlari Kubada tamaki o'raydigan fabrikada tajriba o'tkazadi. Spirmen birinchi bo'lib matematik faktor yaratadi. Ya'ni Spirmen formulasi yaratiladi. Ulardan birinchisi Raven metodikasi yaratiladi. Bu metodikalar odamni intellektini tekshiradi. 1920-yildan boshlab Amerikada aqli odamlarni saralash boshlanadi. 1943-yillarda Grindess degan maktabda matematikaga layoqati bor bolalarni o'qitish yuzaga keldi. Xalqaro Nobel mukofoti sohiblarining 90% Amerikadan chiqqan.

Miya 13 yoshga kelib pishadi. 13 yoshdan keyin layoqat yashirin ko'rına boshlaydi. Ungacha bolalarda qiziqishlar namoyon bo'ladi. Fanlarga, sport turlariga qiziqishlar beqaror bo'ladi. Ichki yo'nalish (layoqat)ni 10-12 yoshida elektronnoflogramma yordamida aniqlash mumkin. Psixologiya fani differential qobiliyatlarning tug'ma bo'lishini inkor etmagan. Qobiliyatlarning rivojlanishiga zamin bo'luvchi xattixarakter, xis qilish organlari va miya tuzilishidagi bu morfologik va funktsional xususiyatlar layoqat deb ataladi.

Amerikalik olim Temuraning tadqiqotiga ko'ra; O'ng qo'lning tezkor harakatlari (ustunligi) tabiiy fanlarga salohiyat borligini. Chap qo'lning tezkor harakatlari - gumanitar fanlarga salohiyat borligini ko'rsatadi. O'ng

quloq tezkor eshitsu(ustunligi) chap yarim sharlar ustun

Chap quloq tezkor eshitsu o'ng yarim sharlar ustun. Erkaklarda bir tamon yarim sharlar kuchli-assimetriya.(xunuk.cho'tir,aqlli)

Ayollarda ikkita yarim sharlar teng simmetriya. (chiroyli, uzoqni ko'raolmaydi.kam aqlli).

Ko'proq o'ng yarim sharlari rivojlangan bolalarda iste'dod ko'proq. Iste'dod 2 xil bo'ladi:

1) Bolalik iste'dod;

2) Individual iste'dod.

Individual ham 2 xil bo'ladi:

a) Anamal o'ta yarqirab chiqqan;

b) Normal bo'ladi.

Normadan chiqib ketgan Anamal bolalar 13-14 yoshda atrofida normal bolalar qatoriga tushib qoladi. Ularning 90% so'nadi. Bazi bolalar shunday xislatlarini ko'p sezdirmaydi. Qobiliyat bu bilimlarning o'zi emas aksincha bilim ola olish bu qobiliyatdir. "5" oluvchilar bor, "a'lochilar" bor o'qigani uchun qobiliyatli emas balki qobiliyatli bo'lgani uchun o'qishi kerak. Qobiliyat deb u yoki bu faoliyatda muvofaqqiyatga erishuvini taminlaydigan imkoniyatlarga aytiladi. Ya'ni chiroyli yoza olish ham bir ichki imkoniyat qobiliyatdir. Qobiliyat bu bilim olish emas.

1930-yillarda Ravon testi bilan birgalikda Mill - Xill testi qo'shib ishlatilgan. Sigma degani minglarcha odamlarni bo'yini o'lchasak, o'rtachasini olish demakdir.

Qobiliyatlarning xar-xil turlari bor bo'lib ular 5 sohaga bo'lingan.

1) Aniq fanlar va texnika sohasi: matematika, programmalashtirish, kompyuter, ishlab chiqarish, aviaçiya,

konstruktorlik, fizika, texnika, elektronika va hokazo.

2) Tabiiy fanlar sohasiga:

a) Meditsina, b) Biologiya, v) Qishloq ho'jaligi, g) Farmonologiya, d) Bionika

e) Biofizika, biotexnika va xokazo.

3) Gumanitar fanlar va badiiy did sohasi:

a) Tarix, iqtisod, falsafa, siyosat, soniologiya b) Adabiyot, til, san'at, shariyat, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at, dizayn,jurnalistika.

4) Ijtimoiy qobiliyatlar va muloqot sohasi:

a) Tashkilotchilik, rahbarlik, ish yuritish, v) Muloqot, og'zaki nutq, diplomatiya,

b) Ommaviy tashabbuskorlik, g) Yozma nutq san'ati (nodir san'at) d) Tillarga bo'lgan qobiliyat sohasi.

5) Jismoniy ya'ni sport sohasi:

a) Shaxmat - shashka aqliy sport, b) yakka kurash turlari,v) futbol, voleybol, basketbol, g) engil va og'ir atletika, e) suv sporti, morofon, paroshyutdan sakrash.

Har qanday qobiliyatlarni aniqlash metodikalari aniq, matematik-statistik taxlil qilingan bo'lishi kerak. Milliy ruhga mos bo'lishi kerak. Standart normalari olingan bo'lishi kerak. Standart bumillatning meyor va mezoni o'ziga xosligi degani.

1997-yil 27-dekabrda Xalq Ta'limi vazirligining xay'at majlisidagi qarorga "Pedagogik layoqat va mayllarni aniqlash metodikasi kiritilgan".

Iste'dod nima? Iste'dod bu forscha so'z bo'lib maqtov, yorliq, tamg'a degani. Ya'ni bir nechta terminlarning zehn, zakovat, intellekt,

iqtidor yig'indisidir. Iqtidor degani forscha so'z bo'lib erli, suvli degani ya'ni eri bor, boy, badavlat.

Bilimdonlarga iqtidorli deyish mumkin. Iste'dodli deb tug'ma imkoniyatli insonlarga aytiladi. Iste'dod bu ko'p qirrali mukammal shakllangan qobiliyatlar majmuasidir. Aqliy zakovat, ilm, intellekt bolaga ota urug'i orqali o'tadi. Idan 5gacha farzand aqlli, qolganlari zaifroq bo'lib tug'iladi.

Amerika va Yaponiya 1 navbatda ta'limni o'zlashtirish va iste'dodli bolalar bilan ishlash evaziga texnika taraqqiyotiga erishdi. Rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Germaniya psixologik testlar metodikasi bo'yicha bu mamlakatlardan ustun turadi. Talant deb odamga qandaydir murakkab mexnat faoliyatini, muvofaqiyatli, mustaqil va original tarzda boshqarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi.

Iste'dodli bola haqida ma'lumot savolnomasi.

I. Ota-onasi haqida ma'lumot.

1. Otasining ismi, familiyasi, (qaerda tug'ilgan, sanasi to'liq qayd qilinsin).

a) kelib chiqishi, millat, avlodi, ma'lumoti, qaysi maktabni tugatgan, keyingi ma'lumoti va b.

b) Otasining sevgan kasbi, hunari, sevimli mashqi.

v) Otasining jamiyatda tutgan norasmiy o'rni, ishda va hayotda muvofaqiyatlari, ma'lumotidan qoniqadimi, ortiqcha hunari bormi, daromadlari ko'lami va xarakteri.

2. Onasining ismi, familiyasi (tug'ilgan joyi, aniq va haqiqiy sanasi).

a) ota-onaning o'zaro qarindoshligi, bir-biriga munosabati, onaning kasbi, ma'lumoti, ishda muvofaqiyati, nasli, millati, o'tgan avlodi, ota-onasi.

b) Naslida olim yoki ko'zga ko'ringan insonlar borligi, ota-onasining aka-ukalari, opa-singillari orasida fozilu-ulamolarning bor-yo'qligi, ularning kimligi, qaysi sohada nom qoldirganlar, qachon to'g'ilib yashaganlar, qilgan xizmatlari va b.

II. Bolaning ijtimoiy muhiti.

a) Oilaning ijtimoiy muhiti, byudjeti, maoshi, boshqa daromadlari, moddiy yordamga ehtiyoj bormi, halolligi, oilaning farosatlilik darajasi, uy tutishi, madaniy munosabatlari saviyasi.

b) Oilaning xayriya qilishi, sadaqalar berish formalari, odamiyligi, qo'ni-qo'shnilar bilan aloqalari va b.

v) Ota-onaning sog'ligi haqida ma'lumot (nima kasalliklar bilan og'riqanlar, nasliy kamchilik yoki yutuqlari bormi).

g) Qiziqishlari, mayllari, xarakterli xususiyatlari, qaysi tillarni biladilar, ota-onalari davlat mukofotlariga egamilar, sudlanganmilar va b.

III. Ijtimoiy-madaniy muhit.

a) Bolaning o'qishi, uchun oilada qanday sharoit bor, kitob-daftarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladimi, bolaning kitobga bo'lgan munosabati, kutubxonalarga a'zomi, ota-onasi kitob o'qiydimi, oilada kitob, ilm-ma'rifat haqida suhbatlar bo'lib turadimi va b.

b) Ota-onasining televizorga bo'lgan munosabati, bolaning televizorga bo'lgan ehtiyoji, uning bo'sh vaqti boshqariladimi, televizor

ko'rish tartibi nazoratdami, biron-bir chegaralash bormi.

v) Televizordagi qanaqa ko'rsatuvni bola yoqtiradi, qaysi artistlarni biladi va qiziqadi, kimlarni alohida kuzatib yodlab yuradi va b.(13-14 yoshda multfilmni ko'rishni qattiq istasa qoloq. Bola tinmay televizorga intilsa yahshilikka olib bormaydi.)

g) Bolaga cho'ntak puli beriladimi, qancha miqdorda, bola pulni behuda xarch qiladimi, nimaga, qanaqa narsalarga yoki eb-ichadimi, pul, buyum, o'yinchoqlar yig'adimi.

d) Oilada mehmonga munosabati, kimlar kelishadi, bolaning ularga munosabati, yoqtiradimi, o'zi havas bilan xizmat qiladimi, o'zi mehmonni kutadimi, suyunadimi, oshxonada o'z mahsulotini tayyorlaydimi, yoki befarq qarab, mehmon kelgach chiqib ketadimi, yashirinib o'tiradimi, qochadimi va b.

e) Oilada uy jihozlari, madaniy-moddiy muhit qay darajada, gigienik ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit bormi, bola tozalikka o'rgatilganmi, odob-ikromni o'rganishda oilada qanchalik sharoit bor.

j) Oilaga qanday yordam uyushtirish ehtiyoji bor, pedagogik, Ulug'bek fondi tomonidan, oblano, maktabdan maktabga, lineydan ko'chirish, reptitor xizmatini tashkil etish, yuridik himoya, psixologik yordam va h.

#### IV. Ota-ona bola haqida.

a) Bola qanday tug'ilgan, kutilgan, havas qilingan bolamidi, uning kasalligi, sog'ligi, vazni, nechanchi farzandligi, undan oldingilari sanalsin, jinsi va tug'ilgan yillari bilan.

b) Oilada shu bolaning tug'ilishi kutilganmi, yoki tasodifdan bo'lib qolganmi, tug'ilgungacha uning tug'ilishiga ota-onaning munosabati, onaning homiladorlik paytidagi kayfiyati, sog'ligi. (Ota-ona janjalda bo'lsa, eri ketib qolgan, ona iztirobda bo'lsa tug'ilgan bola, quvvati yo'q, kuchsizroq to'nkaroq, bo'ladi. Agar ona yaxshi kayfiyatda bo'lsa bolada mehr o'yg'onadi. Xomiladorligida bolaga gapirsa, shirin orzular qilsa, erkalasa bola samimiy onasiga mehrlil bo'ladi.)

v) Homiladorlik paytida onaning holati, tinchligi, halovati, osoyishtalikni istaganmi, ko'p harakatda bo'lganmi, asabiylashganmi va h.

g) Bu bolaning boshqa bolalardan farqi qanday, tug'ilishida(ko'karih, teskari, operatsiya qilib olinganmi) xarakterida, xatti-harakatida, ovqatlanishida(go'sht, sabzi emayman deyishi - didli, injiq bola bo'ladi.), uyqusi qanday -yuz tuban yotadigan odamlar o'z kashi va ishidan norozi, chalqancha yotadiganlar kuchli shaxs va o'z xayotidan qoniqadilar.

-Ichi tor odam, qo'rqqoq odamlar boshini o'rab yotadi.

-Ochiq ko'ngilli yarim ochib yotadi.

-Badiiy obrazi kuchli kishilar oyog'ini ochib yotadi.

-Qo'li peshonasida bo'lsa-qayg'uli.

-Xarakatdagisi gijjabor, kasallik bor.

-Rangli tush ko'rish bu kasallik alomati.

-Tush ko'p ko'rish-badiiy obraz, kuchli kishilar.



d) Uyqusi qanday, ertalab o'zi turadimi, uyg'atish kerakmi, o'zi kirib uxlaydimi yoki majbur etish kerakmi, o'rtacha necha vaqt uxlaydi(qanchalik kam uxlasa bo'liq, tetik bo'ladi. Ko'p uxlasa to'nka, aqlsiz, kam yashaydi) kunduzi uxlaydimi va b.

c) Tengdoshlari bilan aloqasi, og'aynilari, o'rtoqlari ko'pmi, ularga munosabati, yuvoshligi, o'jarligi, gaplashmay yurish odati bormi (gaplashmasa demak injiq, o'ziga o'xshagan bolani axtaradi. Oriyatli, nozik didli bola do'st tanlaydi. Faqat kamroq bolalar bilan o'ynaydi), do'st tanlaydimi.) Asosiy va doimiy kayfiyati(kayfiyati yomon bo'lib yursa xarakteri o'zgaruvchan) kulib yuradimi, qovoq solib yuradimi, jiddiymi, o'zgaruvchanmi, tez ko'nadimi, didlimi.

V. Bola haqida o'zidan so'rab bilish.

a) Qiziqish va orzulari, qaysi predmetlarni yoqtiradi, nima uchun yaxshi ko'radi.

b) Jamoada tutgan o'rni, bolalar nazar-pisand qiladilarmi, obro'si, oshna-dugonalari ko'pmi, hamma bilan kelishib ketaveradimi yoki do'st tanlaydimi, hammaga birxil yoki hammaga farqli munosabat qiladimi va b.

v) Nima xususiyati bilan boshqalardan farq qiladi, muzika, duradgorlik, rassomlik, asbob-uskunalardan foydalana oladimi, she'riyat, badiiy xususiyatlari bormi, aniq fanlarga munosabati, to'garaklarga, boradimi va b.

g) Bolaning xarakteri, achchiqlashib gaplashmay yurgani bo'ladimi, kek saqlaydimi, asosiy faoliyat yo'nalishi qaysi, kitob o'qish,

atrofdagilar bilan muomala qilish, o'z-o'zini rivojlantirish hissi shakllanganmi va b.

d) Oshna-og'ayni, kiyim-kechak, ovqat tanlaydimi, yoki hamma narsaga kirishib, ko'nib ketaveradimi, hammaga bir xil munosabatdami va h.

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi xamma zamonlarda va hamma davlatlarda xam ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Egipt, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) xaqidagi. kitobning muallifi Aristoteldan hamda temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Abu Ali ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-muloxazalarini bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos

psixologik salohiyatning nechog'liq to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi.

Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan, rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy, intellektual, jismoniy, ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ayniqsa, aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta'lim jarayoniga xam o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ta'lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta'lim muassasalarida ishlarni to'g'ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to'g'ri tashkil etishga xam bog'liqdir.

Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, xam ma'naviy, xam aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'lim-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;

- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:

- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik- pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifani belgilab olamiz:

- Iqtidorli o'quvchilarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy- uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash. Intellektual ijodiy salohiyatni

oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.

-Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish.

-Yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish.

-Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish. yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;

-fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-ta'lim menejmenti sohasida innavatsion takliflarni o'rganish va ularni ta'lim tizimiga tadbiiq etish;

-bo'lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko'maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o'rganish va me'riy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarining sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, yoshlarni ta'lim jarayonida intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Ya'ni har bir o'quvchiga individual yondoshish kerak.

Agar bola barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik, o'z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan etarli darajada e'tibor berish kerakligini talab etadi.

Iqtidorli bola quyidagi xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi: ijodiy, original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadi; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik; boy tasavvurga ega (ijodiy, tasviriy, musiqiy faoliyatda namoyon bo'ladi); ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqotga intiladi.

Ba'zida esa ota-onalarni farzandlarining o'z tengdoshlariga o'xshamasligi, boladagi o'ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtiyoq xavotirga soladi. Bolaning xatti-harakatlari qat'iy va noan'anaviy bo'lsa, masalan Nimaga? Nima uchun? kabi savollarni ko'p bersa ba'zida ota-onalar bu savollarga javob berishga qiynalsalar, ular bolalarga tanbeh berishlari, va hattoki, uni jazolashlari

mumkin. Bunday holatlarda ota-onalar boladagi ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish o'rniga uni so'ndiradilar. Iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning farzandlarining barcha sohalarida birinchi bo'lishi kabi hohishlarining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, ona mening farzandim qobiliyatli bo'lsa-yu, nima uchun o'qishni hohlamaydi? degan savolni berishi mumkin.

Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, ota-onalar bolani haddan tashqari biror bir mashg'ulot bilan shug'ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg'otishi mumkin. Agar biror muddat vaqt o'tsa, bolaning o'zi bunga qiziqishi, chunki ayni vaqtda bolani boshqa mashg'ulotlar ko'proq qiziqtirishi mumkin.

Psixologlar shuni ta'kidlaydilar, agar uzoq vaqt iqtidorli bolaning intellektual yoki harakat ehtiyojlari qondirilmasa, bu bolaning his-tuyg'ulariga putur etkazishi va nevroz holatlariga olib kelishi mumkin. Agar bola iqtidorli bo'lsa, u holda:

-uning qiziqishi, ijodkorlikni, fikrlar originalligini qo'llab-quvvatlash kerak:

-bolaning o'z sevimli mashg'ulot yoki o'yin turini tanlashiga va o'z fikrini bayon etishiga imkon berish lozim;

-bola sizga emas siz unga moslashishingiz kerakligini unutmash kerak; tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda yordam berish kerak;

-o'zi kabi har tomonlama rivojlangan do'stlari bo'lishiga ahamiyat berish kerak:

-bolani har doim ham g'olib bo'lishiga ortiqcha intilmaslik lozim, aks holda boshqa bolalar, tengdoshlari uni yomon ko'rib qolishlari mumkin;

-boladan har doim va hamma sohada birinchi bo'lishini, maktabda esa a'lochi bo'lishi kerakligini talab qilish noto'g'ri chunki maktabda a'lo baholarga o'qish har doim ham iqtidorli bo'lishga bog'liq emasligi isbotlangan.

Iqtidorli bolalarning ota-onalari ba'zida qizim yoki o'g'lim o'z tengdoshlarini o'zib o'tib, masalan 7 yoshida 3-sinfda o'qishlariga intilish to'g'rimikan, degan savol bilan murojaat etadilar. Har bir holat o'ziga yarasha noyobdir, lekin shu o'rinda bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvi haqida unutmash kerak. Axir u boshqa, o'zidan katta bolalar tomonidan qanday qabul qilinishi ma'lum emas-ku. U yakkalanib qolmasmikan?

Bolangizning boshqalar bilan muloqotiga va muloqotning ijtimoiy ko'nikmalarini korreksiya qiluvchi guruhiy o'yinlarga ko'proq ahamiyat bering. Bunday o'yinlarni o'tkazishda faqatgina bilish jarayonlarining rivojlanishiga ahamiyat bermasdan, balki boshqa bolalar bilan birgalikda harakat qilishlariga ham e'tibor berish kerak. Iqtidor bilish, o'quv, ijodiy, badiiy, harakatli faoliyat sohalarida namoyon bo'ladi.

Iqtidorli bolaning o'quv faoliyatdagi yutuqlari uning erta yoshdan o'qishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Ba'zida bolalar 3-4 yoshida, kattalarning yordamisiz

mustaqil ravishda o'qiy boshlaydi. Bola kitoblarni tomosha qilishi, rasmlar asosida hikoya tuzishi, harflarni yozishi, kattalar o'qiyotganda uzoq vaqt sabr bilan tinglashi, o'z yoshiga mos bo'lmagan matematik amallarga qiziqishi, matematik belgi va ishoralarni tushunib eslab qolishi, ba'zida tabiatga, tabiiy fanlarga qiziqishini ham namoyon qilishi, turli predmetlarning kelib chiqishi va ularning vazifasi haqida savollar berishi mumkin.

Badiiy faoliyat sohasida bola o'zini ertaroq namoyon etadi: erta rasm chizishni boshlaydi, ko'p vaqtini, masalan plastilindan turli narsalarni yasashga ajratadi, bunda o'zining mohirligini namoyiy etish orqali, ranglar, kompozitsiyalarni to'g'ri tanlay oladi. Shuningdek, musiqaga ham erta qiziqish paydo bo'ladi, musiqiy tovushlarni ajrata oladi.

Harakatlantiruvchi sohadagi iqtidor bolada turli harakatlarni bajarish, ya'ni yugurish, sakrash turli akrobatik mashqlarni bajarish, muvozanatni saqlay olishda namoyon bo'ladi. Bola turli yoki bitta sohada iqtidorli bo'lishiga qaramay, mana shu tabiat tomonidan berilgan qobiliyatni o'z vaqtida aniqlab, uning rivojlanishiga yordam berishimiz kerak.

Yoshlarni intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual ijodiy salohiyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida bulardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi. Mana shu psixologik jihatlarni e'tiborga olingandagina yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi.

Ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'limning ma'lum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi. O'quvchilarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

1.O'quvchilarning intellektual ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg'otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

2.Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual ijodiy salohiyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3.Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy

manbalarni qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Demak, yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchilar ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirlarni belgilab ularni ikki guruhga ajratamiz:

1. "Intellektuallar" guruhi.

1) "Zakovat", "Iqtidor", "Imkon" kabi intellektual o'yinlarni o'tkazish;

2) "Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi, fizik, biolog, filolog... va hokazo" nomlarda tanlovlar o'tkazish;

3) ilmiy yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish, ilmiy anjumanlar o'tkazish;

4) "Yosh dasturlovchilar", "Yosh astronomlar", "Yosh ixtirochilar", "Yosh konstruktorlar", "Yosh texniklar", "Yosh radiotexniklar", "Yosh iqtisodchilar" kabi

klublarni tuzish.

2. "Ijodkor va iste'dodli yoshlar" guruhi

1) "Eng yaxshi she'r, rasm, foto, kashta, so'zana va hokazo" nomlarda tanlovlar o'tkazish;

2) "Quvnoqlar va Zukkolar" klublari jamoalari bellashuvlarini o'tkazish;

3) "Eng yaxshi hamshira, hisobchi, oshpaz, chilangar, suvchi, hosilot, terimchi va hokazo" nomlarda tanlovlar o'tkazish;

4) "Yosh musavvir", "Yosh musiqashunos", "Yosh kitobxon", "Yosh ijodkor" kabi klublarni tuzish;

5) Ijodkor yoshlarning ijodiy kechalari va ko'rgazmalarini tashkil etish;

6) Umumxalq bayramlari, xalqaro va milliy bayram kunlari

munosabati bilan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.

7) Buyuk mutafakkirlarimizning tavallud kunlariga bag'ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko'rinishlarini uyushtirish;

8) Mustaqil ravishda biror bir mavzuga bag'ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash;

9) Badiiy havaskorlik to'garaklarining ishini jonlantirish va musobaqa tariqasida o'tkazilishini tashkil etish;

10) Ijodiy ishlar majmuasini ommalashtirish.

11) Eng yaxshi ijodkor talaba sovrinini tashkil etish.

12) Yil eng yaxshi iste'dodli talabalasi rukni ostida ko'rik tanlov tashkil etish.

Bundan tashqari yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini muntazam rivojlantirish ishlarini amaliyatga tadbiq etish uchun har bir pedagog har bir darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini kuzatib borishi kerak.

### 3. XULOSA

Ma'lumki, keyingi yillarda ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab

chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Bogoyavlenskaya D.B., Bogoyavlenskaya M.E., Odarennost: priroda I diagnostika. M. TsIPRO, 2013 yil.
2. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.:O'qituvchi, 1997 yil.
3. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya - Toshkent:" O'qituvchi", 2013.
4. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. Toshkent: Fan.-2003.
5. Ushakov D. V. Psixologiya intellekta i oderennosti»: Psixologiya instituti RAN; Moskva; 2011 yil.
6. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
7. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
8. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet,
10. 5002.- 96 b.
11. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Shark.-2000.- 112 b.
12. Karimova V.M., Sunnatova R. "Mustaqil fikrlash" o'quv qo'llanmasi
13. o'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Shark, 2000.- 16 b.
14. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: "Piter",1999 -
15. 688 s.
16. Metod effektivnogo obucheniya vzroslyx. Uchebno-metodicheskoe
17. posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.
18. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i
19. A.Dergacha.- M, 1998 - 688 s.